

This is not registered version of TotalDoc Converter
 Mardi maqtanchoq qurug' qolasa, maqtanchoq quragan so'zni ham albatta qo'shib aytishadi. Odam, maqtanchoq bo'lganga yarasha, sal botirroq bo'lsa-ku, bir nav. Ammo, uchragan kimsaga osmondan kelib gapirsa-yu, o'zi chumchuq "pir-r" etsa, yuragi "shir-r" etadiganlar sirasiga kirsa, ko'pchilikka masxara bo'lgani qolarkan.

Mardi-maqtanchoq uzoqdan ko'rindi deguncha, ko'chada turgan tengdoshlari "shuni bir vaqillatsak-chi", deya o'zaro piqirlab qo'yishadi. U yaqin kelgach, kimdir ataylab o'qrayib boqadi. Mardi maqtanchoq avvaliga bir seskanib tushadi, rangi oqaradi, so'ng o'zini o'nglab, o'qrayib turgan bolaga birdan chaqchayadi:

Ha, vey, nimay-chun ko'zingni olaytiryapsan? Sendan qo'rqedigan o'pka endi tug'iladi. Tirkashning kuchukchasiyam menga bir irillab ko'rganidi. Dumiga tosh bostirib qo'ysam, yarim kun angillab yotdi. Bildingmi? Abbakirning xo'rozi ustimga tashlanganida, po'kaniga urib, shaytonlatib qo'yanman. Bildingmi? Echkimiz meni suzmoqchi bo'lувди, ko'ziga tuproq sochvordim. Bildingmi? Men bilan pachakilashma!

Tengdoshlari hirninglay boshlaganidan arazlangan Mardi-maqtanchoq o'ng ko'zini chala qisib, chap qoshini chimirgan ko'yи, asta nari ketadi. Ariq bo'yidagi nam qumlardan gumbazchalar yasab, "hammompish" o'ynab o'tirgan kichkintoylar tomonga yuradi. Gerdayganicha borib, gumbazchalarini bir-bir toptab o'tadi.

Bundan keyin men yurishim mumkin bo'lgan joylarda o'ynamanglar. Bildilaringmi? deya ukasi tenggi jujuqlarga dimog'ini shishiradi. Yo'limda qo'ng'iz uchrasha, naq chalpak qiptashlayman. Qancha-qancha chumolilarni g'arch-g'arch ezib o'tganman. Oyog'imning tagida o'ralashgan mushuklarni hippa ushlab, ko'ziga saqich yopishtirib qo'yaman. Bildilaringmi? Meni ko'rgandayoq, yo'ldan qochishni o'rganinglar.

Mardi-maqtanchoqning quruq po'pisalariga ko'nikib ketgan mittivoylar unga qarab ham qo'yishmaydi. O'zaro juvirlashib, qum gumbazchalarini boshqatdan qurishga kirishadilar.

Bu surlarning beti charm bo'pketibdi, deya o'zicha g'udranadi Mardi-maqtanchoq. Kattani hurmat qilib, qo'rqi broq turishniyam bilishmaydi.

Uylariga biron-bir qarindoshi kelib qolsa, Mardi-maqtanchoqqa xudo beradi. Ora-sira "hing-hing"lab kulib, gapni ko'paytirishga tushadi:

Ko'pchilikning yuragini opqo'yganman. Bildingizmi? Qoramni ko'rsa, hatto, suvaraklar tirqirab ketishadi. Hing-hing-hing.

Ayniqsa, pashshalar mendan yomo-o-n qo'rqishadi. Shu yilning o'zida bir yarim milliontasini tinchitdim. Hing-hing-hing. Kecha qovog'arilar murabbomga ko'z olaytirganidi, sekin sochiqni oldim-u, bir urishda beshtasini sulaytirdim. Keyin iniga qaynoq suv sepib, qolganlariniyam jizza qipqo'ydim. Hing-hing-hing. Zo'rligimi endi bildingizmi?

Mardi-maqtanchoqni ko'rsam, o'zbeklar juda o'xshatib to'qigan maqollarining ba'zilari o'z-o'zidan esimga tushaveradi:

Tentak o'zini maqtaydi.

Yomonning bir qilg'i ortiq.

Qo'rqqan oldin musht ko'tarar.

Yaramasning kuchi yapaloqqa yetibdi.

... Agar ushbu hikoyamni o'qib turgan bo'lsangiz, hech ikkilanmay aytishim mumkinki, demak Siz kitoblardan aql o'rganishga tashna, bilimga qiziquvchan, kelajakda taniqli kishi bo'lishga qattiq bel bog'lanan tirishqoq bolalardan birisiz. Hadeb ko'cha changitib yuradigan o'rtoqlaringizdan ko'ra ancha kengroq fikrlash ham qo'lingizdan keladi. Shunday ekan, birpas o'ylab olib ayting-chi, yuqoridagi maqollarning qay bittasi Mardi-maqtanchoqning qaysi qiliqlariga ko'proq mos tushadi?

Yaxshilab o'ylang. Erinmang.

2007